

## Kelajak energiyasi uchun yana bir qadam

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-24-noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifiga bag'ishlab o'tkazilgan Koreya-O'zbek "Biznes-Forum"i doirasida, Koreyalik va O'zbekistonlik hamkorlar o'rtasida Toshkent shahrida Yeju texnika institutini tashkil qilish haqida Memorandum imzolangan.

Imzolangan Memorandumga asosan 2018-yil 24-iyul sanasida Toshkent shahridagi Yeju texnika instituti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan davlat litsenziyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasa maqomiga ega bo'ldi.

Toshkent shahrida Yeju texnika institutining tashkil etilishi Respublikamizda yangi ish o'rinlar yaratilishi bilan bir qatorda, ta'lim sektorida sog'lom raqobat muhitining paydo bo'lishi, yoshlarning o'zlari xohlagan va innovatsion yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishi, ta'lim va sanoatning chambarchas bog'lanishi, ta'lim va kadrlar sifatini oshishi, davlat byudjetiga tushumlarni ko'payishi va byudjetdan qoplanadigan sarf xarajatlarni kamayishi va ta'limga oid boshqa masalalarning ijobiy yechimiga olib keladi.



2019 - yil 12 - dekabr kuni Toshkent shahridagi Yodju texnik institutida "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" o'quv-laboratoriya majmuasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda mamlakatning yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari, vazirlik va hamkor tashkilotlar vakillari, hamda OAV muhirlari ishtirok etdilar. Qizil lentani kesish marosimi uchun ramziy sana 12-dekabr kuni soat 12:12:12 belgilandi. Tadbir jarayonida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan, ilm fan va innovatsiyalar sohasida, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti va Koreyaning "Plan best energy" kompaniyalari bilan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" sohasida ozaro hamkorlik memorandumlari imzolandi. Mehmonlarga "Muqobil energiya" ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan quyosh, shamol va vodorod energiyalarini olish va tahlil qilish namoyish etildi.



Quvonarli jihati ushbu tadbirda "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasini mudiri D.Qodirov hamda kafedra dotsenti A.I.Anarbayevlar tadbirda ishtirok etdilar. Tadbir davomida Yeju texnika instituti rektori J.Sh.Kudaybergenov bilan yangi ochigan laboratoriya majmuasidan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti talabalari ham foydalanishlari boyicha fikr almashishdi.

"Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasini assistenti Alisher Davirov  
institut matbuot xizmati rahbari Rahimoy Jumaniyozov